



# “Alisher Navoiy va XXI asr”

**9-ULUSLARARO KONFERANSI**

Toshkent-Bursa, 2024-yil 8-fevral

# “Ali Şir Nevai ve 21. yüzyıl”

**9. ULUSLARARASI KONFERANSI**

Taşkent-Bursa, 8 Şubat 2024

# “Alisher Navo'i and the 21st century”

**9th INTERNATIONAL CONFERENCE**

Tashkent-Bursa, February 8, 2024



نويزىت بولغاى پردى رەبىيە  
كرى شەرىف يوق شاندىن  
كەم ئەلىس علۇ قىدىقۇلۇم آندىن جەرىم

**Alisher Navoiy nomidagi  
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti  
O‘zbekiston Respublikasining  
Turkiya Respublikasidagi Elchixonasi  
Bursa viloyati Usmong‘ozi tumani hokimligi  
1326 Bursa Fatih muzeyi  
Bursa Uludog‘ universiteti**

## **«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»**

**mavzusidagi 9-uluslararo konferansi materiallari**

**2024-yil 8-fevral**

**Toshkent – Bursa – 2024**

Umuman, g‘azalda keltirilgan o‘ziga xos o‘xshatishlar, ichki olamning obrazli harakatlari g‘azaldagi voqelikning mazmunan boy va betakror bo‘lishini ta’minlagan. Ko‘ngil radifli g‘azallardagi jonlantirish, shaxslantirish, o‘xshatish, tazod, mubolag‘ali tasvirlar g‘azalni shaklan va mazmunan boyitgan. Adabiyotshunoslikning nazariy qoidalarida aytilganidek, lirk turning subyektni – lirk qahramonning ichki olamini obyekt sifatida bu darajada keng ifoda eta olish imkoniyati Alisher Navoiy g‘azallarida o‘zining yaqqol ifodasini topgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Гаройиб ус-сигар. – Тошкент: Тамаддун, 2011. – 286 бет.
2. Бозорова Н. Алишер Навоий ғазалларида кўнгил образи. – Тошкент: Фан, 2009. – 144 бет.
3. Очилов Э. Раз қизининг сұхбати / Ишқ ва ҳайрат олами. И.Хақкулов, Э.Очилов. – Тошкент: О‘zbekiston NMIU, 2016. – Б. 277-284.
4. Ibrohimov, O. A. 2021. “Mumtoz maqomlarning shakllanish tarixidan”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 1: 98–110.

## “NASOYIM UL-MUHABBAT”DA IMOM G‘AZZOLIY TALQINI

### Zilola AMONOVA

Buxoro davlat universiteti dotsenti, f.f.d.,  
[zilolajonamonova@gmail.com](mailto:zilolajonamonova@gmail.com)

### Zufnunabegim AXROROVA

Buxoro davlat universiteti magistranti  
[zufnunabegimaxrorova@gmail.com](mailto:zufnunabegimaxrorova@gmail.com)

DOI: 10.52773/tsuull.navoiyconf.2024/OIAE4742

**Abstrakt** Maqlada Alisher Navoiyning “Nasoyim ul- muhabbat” asarida Muhammad G‘azzoliy bilan bog‘liq hikoyatning g‘oyaviy-badiiy tahlili beriladi. Shuningdek, mazkur asarda Navoiy ikki munosabat bilan Imom G‘azzoliy nomini qayd etadi: 1) ma’lum bir shayxlar haqida ma’lumot berilganda Imom G‘azzoliy bilan bog‘liq maqola (hikoyat) larning qayd etilishida; 2) Muhammad G‘azzoliyning o‘zi bilan bog‘liq maxsus hikoyat keltirganda uning nomi qayd etiladi. Mazkur masalalar maqlada ilmiy tadqiq etiladi.

**Kalit so‘zlar:** “Nasoyim ul- muhabbat”, Imom G‘azzoliy, tasavvuf, shayx, zikr, ma’rifat.

**Abstract:** The article conducts a thorough analysis of Alisher Navo‘i’s “Nasayimul Muhabbat,” examining its ideological and artistic connection with Muhammad Ghazali. Navo‘i references Imam Ghazali in two key contexts within the work: firstly, when discussing various sheikhs and addressing topics related to Imam Ghazali, and secondly, when narrating specific anecdotes about Muhammad Ghazali. Employing a meticulous scientific approach, the article delves into these aspects to provide a nuanced exploration of their interrelation.

**Key words:** “Nasayimul Muhabbat”, Imam Ghazali, Sufism, Shaykh, Zikr, Enlightenment.

Alisher Navoiy turkiy-tasavvuf adabiyotining taraqqiyotida salmoqli hissa qo'shgan ulug' ijodkorlardan biridir. Uning lirik asarlari bilan bir qatorda, nasriy asarlarida ham islom va tasavvuf talqini muhim o'rinni egallaydi. Ayniqsa, uning "Nasoyim ul- muhabbat" tazkirasi o'zining keng qamrovligi bilan ajralib turadi. Chunki bu tazkira ayni xarakterda yaratilgan asarlardan, ifoda uslubining yangiligi bilan farqlidir. Hazrat Navoiy o'z salaflari Fariddin Attor va Abdurahmon Jomiyarning an'analarini davom ettirish bilan birga, mazkur yo'nalishda o'ziga xos yanchiga uslubni tanladi, deyish mumkin. Ya'ni so'fiy-shayxlar hayoti haqida hikoyat va manaqiblarni berish bilan cheklanib qolmay, islom va tasavvufga doir ayrim istilohlarning ham sharhini keltirgan. Ana shu nuqtayi nazardan qaraganda, mazkur asar ham tazkira, ham lug'at-ma'lumotnomaga xos xususiyatni ham o'zida jamlaydi. Bu, albatta, ijodkorning yuksak iste'dodidan dalolatdir. "Nasoyim ul- muhabbat"da 770 ta shayx haqida ma'lumot berilganligining o'zi asarning ancha salmoqli ekanligidan darak beradi. Tazkirada zikr etilgan shayxlardan biri, Muhammad Imom G'azzoliydir. Uning to'liq nomi Imom Abu Hamid ibn Muhammad bo'lib, u Xurosonning Tus shahrida 450-(1058/59) yilda tug'ilgan.

Alisher Navoiy "Nasoyim ul- muhabbat"da Imom G'azzoliy nomini ikki munosabat bilan tilga oladi:

- 1) Muhammad G'azzoliyning o'zi bilan bog'liq maxsus maqola (hikoyat) keltirganda;
- 2) ma'lum bir shayxlar haqida ma'lumot berilganda Imom G'azzoliy bilan bog'liq maqola (hikoyat) larning qayd etilishida;

Tazkirada shayx 439- raqam ostida "Hujjat ul-islom Muhammad b. Muhammad G'azzoliy Tusiy" sarlavhasi bilan berilgan. Navoiy dastlab shayxning kuniyati bilan bog'liq ma'lumotlarni keltiradi: "Kuniyati Abu Homiddur va laqabi Zaynuddin" [Navoiy, 2001: 244]. Alisher Navoiy G'azzoliyning pir-ustozlarini ham keltiradi: "Tasavvufda intisobi Shayx Abu Ali Formadiydr". Intisob so'zining lug'aviy ma'nosi nisbat, tegishlilik degan ma'noni anglatadi, tasavvuvda esa teshishli maslak yoki maslakka bog'liq bo'lishni bildiradi. Shundan anglash mumkinki, G'azzoliy tasavvufda Shayx Abu Ali Formadiy maslagidan bo'lgan. "Nasoyim ul- muhabbat"da Imom G'azzoliyning ilk saboq olgan maskanlari ham nazardan chetda qolmagan: "Imom Muhammad holining ibtidosi Tusda va Nishoburda ulum tahsiliga va oning takmiling'a ishtig'ol ko'rguzdi". Ya'ni Tusda va Nishopurda ilm tahsil oldi va uning takmiliga - takomillashtirish, kamolga yetkazishga harakat qildi. Muallif shayx hayotini izchilllikda ifodalashga harakat qilgan: "Ondin so'ngra Nizom ul-mulk bila muloqot qildi. Jamoati fuzalo bilaki, oning suhbatida bo'lur erdilar, mutaaddid (bir qancha) majolisda munozara va mujodala qildi va alarg'a g'olib bo'ldi. Va Bag'dodda Nizomiya madrasasi tadrisin anga tafviz qildilar. To'rt yuz o'ttiz to'rtida Bag'dodg'a borib, dars aytdi va Iroq ahli barcha anga shefta va firifta bo'ldilar. Baland qadr arjumand poya topti" [Navoiy, 2001: 245]. Mazkur parchanening joriy tilimizdag'i tabdili quyidagicha: Shundan so'ng Nizom ul-mulk bilan muloqot qildi. Fozillar jamoasi u bilan suhbat qilgan paytlarida bir qancha majlislarda munozara va tortishuvlar qildi va ularning barida g'olib bo'ldi. Va Bag'dodda Nizomiya madrasasida dars berish vazifasini unga yukladilar. To'rt yuz o'ttiz to'rt (hijriy) da Bag'dodga borib dars berdi va Iroq ahli barcha unga shaydo va maftun bo'ldilar. Baland qadr va izzatli martabaga ega bo'ldi.

G'azzoliy Navoiy ta'kidlaganidek, baland martabaga ega bo'lsa-da, u mudarrislikni davom ettirmaydi, balki o'z xohishiga ko'ra, tahsilni to'xtatib haj ziyoratiga otlangan. Bu bilan bog'liq asarda shunday deyiladi: "So'ngra borisin ihtiyoji bila tark qildi va zuhdu inqito' tariqin ilgari tutdi va haj azimati qildi va to'rt yuz sakson sakkizda hajg'a musharraf bo'lub, Shomg'a murojaat qildi va muddate anda erdi va andin Bayt ul-Muqaddasg'a bordi va andin Misrg'a keldi va muddate Iskandariyada erdi va andin Shomg'a kelib, necha vaqt turdi va andin so'ngra vatan azimati qildi va o'z holig'a mashg'ul bo'ldi va xalqdin xilvat ixtiyor qildi va mufid kitoblar tasnif qildi". Mazkur

parchani ham joriy tilimizga tabdil qilsak, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Keyin barchasini o‘z ixtiyoril bilan tark qildi va zuhd va ajralish, tugash yo‘lini tutdi va haj niyat qildi hamda to‘rt yuz sakson sakkizda hajga yetib bordi. Shom ahliga murojaat qilib, bir muddat u yerda turdi. Keyin Bayt ul-Muqaddasga bordi va undan Misrga keldi. Bir muddat Iskandariyada turdi va undan Shomga kelib, ma’lum bir vaqt turib undan so‘ng o‘z vataniga borishni istadi. Unda xalqdan xilvat ixtiyor qilib foydali kitoblarni tasnif qildi, yaratdi.

Hazrat Navoiy Imom G‘azzoliyning yaratgan asarlari haqida hamda Nishopurda so‘fiylar uchun bir xonaqoh yaratganlari bilan bog‘liq ma’lumotlarni ham keltirgan: «Ih’yo ul-ulum»dek va «Javohir ul-Qur’on» va «Yoqut ut-ta’vil» tafsiridekki, qirq mujalladdur va «Mishqot ul-anvor»dekki, barcha mashhur kutublardur va bu barchadin so‘ngra Nishoburga avd qildi va so‘fiya uchun xonaqohe bino qildi“.

Shuningdek, ulug‘ shayxning xayrli amallari va vafot yili ham “Nasoyimul muhabbat”da o‘z ifodasini topgan: „Va ilm talabasi uchun madrasa ham ihdos qildi va avqotin xayr vazofi tavze’ etti, Qur’on xatmidin, arbobi qulub suhbatidin va ulum tadrisidin ul zamongachaki, besh yuz beshda jumodul oxir oyining o‘n to‘rtida Tengri taolo jivori rahmatig‘a vosil bo‘ldi.“ Tabdili: Vai lm talabalari uchun bir madrasa yangidan qurdirdi va vaqtini xayrli vazifalarga taqsimladi. Umrining oxiriga qadar Qur’oni Karim xatm qilish, qalb ahllari suhbatidan bahramand bo‘lish va ilmlar tahsili bilan band bo‘lib, besh yuz beshinchchi yil jumadul oxir oyining o‘n to‘rtida olamdan o‘tdi.

Alisher Navoiy shayx haqidagi ma’lumotlarni kitobxonga shunchaki yetkazishni maqsad qilmaydi, balki badiiy san’atlar vositasida ta’sirchan ifodalashga harakat qilgan. Jumladan, yuqoridagi parchada tanosub (talaba, madrasa, ilm, Qur’oni Karim, xatm qilish) vositasida mulohazalarning yoritilganligini ko‘rish mumkin.

Navoiy G‘azzoliyning hayoti bilan bog‘liq ma’lumotlarni yakunlab, ba’zi do‘stlariga yozgan maktublaridagi hikmatlaridan namuna ham keltiradi: “Ruh hastii nestnamoydurki, kishi anga yo‘l topmas va sultoni qohir va mutasarrif uldur. Qolib aning asiru bechorasidur. Har ne ko‘rsalar Qolibdin ko‘rarlar va Qolib andin bexabar; barcha olamg‘a olam qayyumi bila ushbu misoldurki, olam qayyumi «hasti nestnamon-dur»ki, olam zarrotidin hech zarrag‘a vujud va qivom o‘zi bila emas. Balki oning qayyumlug‘i biladur. Va har nimaning qayyumi zaruratki, ul nima biladur, vujudi haqiqiy angadir va muqavvim vujudi andin oriyat vajhi bila [Sizlar qayerda bo‘lsangiz, u sizlar bilan birgadir] budur va lekin, birovkim maiyyatni bilmagay, illo jism maiyyatini jism bila yo araz maiyyatini araz bila yo araz, maiyyatin jism bila va bu uchalasi olam qayyumig‘a maholdur. Bu maiyyatni fahm qilaolmag‘ay va qayyumiyat maiyyati to‘rtunchi qismdur. Balki maiyyat haqiqat yuzidin budur va bu dag‘i hasti nestnamoydur. Alarki, bu maiyyatni bilmagaylar, qayyumi tilaganlar va topmag‘oylar” [Navoiy, 2001: 245].

Parchadagi mazmun-mohiyatni to‘liq anglash uchun joriy tildagi tabdilini keltiramiz. “Ruh bor edi, yo‘q bo‘ladiki, kishi unga yo‘l topmaydi va g‘olib hamda egalik qiluvchi sulton ham udir. Qolib (tan) uning asiru bechorasidir. Insonlar har ne ko‘rsalar Qolib (tan)dan ko‘rarlar va Qolib (tan) esa bundan bexabar. Butun dunyoga olam adabiyligi bunga misoldirki, olam barqarorligi «bordan yo‘q bo‘luvchidir»ki, olam zarralaridan hech bir zarraga mavjudlik va asos, tartib o‘zidan-o‘zi emas. Balki uning barqarorligi bilandir. Va har nimaning barqarorlik zaruratki, u bilandir, haqiqiy mavjudlik faqat ungadir va barqaror turuvchi vujud undan o‘tkinchi (vaqtinchalik) vajhi bila bu bilan birgadir va lekin, birovkim barqarorlikni bilmagay, illo jism adabiyligini jism bilan yoki vaqtinchalik abadiylikni vaqtinchalik bilan yo vaqtinchalikning abadiyligini jism bilan va bu uchalasi olam mavjudligi uchun mumkin bo‘lmaydigan ishdir. Bu abadiylikni fahm etib bo‘lmas va mavjudlik abadiyati to‘rtinchchi qismdir. Balki abadiylik haqiqati tashqidan qaraganda shundaydir, ammo bu ham bordan yo‘q bo‘lguvchidir. Ularki(insonlar), bu abadiylikni bilmagaylar, ammo mavjudlikni tilaydilar-u topolmaydilar”.

Mazkur parchadan Hazrat Navoiy Imom G'azzoliyning ruh va jism, boqiylik va foniylig, yo'qlik (adam)dan bor bo'lish hamda borlik dan yo'q bo'lish (hasti nestnamon) kabi falsafiy-tasavvifiy masalalarga oid mulohazalarini qayd etganligini anglash mumkin. Ulug' shoir tazkira talablariga rioya qilib, dastlab shayxning hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlarni keltirib, so'ng asarlaridan parcha keltirgan. Shuningdek, G'azzoliyning yana bir asaridan ham parcha keltiradi: "Girdbodki, sofi havoda yerdin qo'par. Bir minora surati bila mustatil va o'ziga chirmanur. Kishi anga boqsa sog'inurki, tufrog' o'zin chirmaydur va tebranadur va andoq emasdur. Balkn ul tufrog'din har zarra bila havodurki, oning muharrikidur. Ammo havoni ko'rsa bo'lmas va tufrog'ni ko'rsa bo'lur. Bas, tufrog' muharriklig'da nesti hastnamoydur va havo hasti nestnamoy. Tufroqqa harakatda musaxxarlig'din o'zga yo'qdur havo ilkida. Va saltanat barcha havog'adur va havoning sultanati nipaydo" [Navoiy, 2001: 245].

Joriy tildagi tabdili: "Quyun toza havoda yerdan ko'tarilar. Bir minora shaklida cho'ziq uzunchoq bo'lib o'ziga chirmanadi. Unga qaragan kishiga shunday tuyuladiki, go'yo tuproq o'zini chirmagandek va tebrangandek, ammo bunday emas. Balki u tuproqdan bir zarra holidagi havodirki bu uning harakatlantiruvchisidir. Shunday bo'lsa-da, havoni ko'rib bo'lmaydi, ammo tuproqni ko'rib bo'ladi. Shunday ekan, tuproq harakatdan yo'qdan bordur, havo esa bordan yo'qdur. Tuproq havo tufayli harakatga bo'ysundirilgandir. Va saltanat, ya'ni boshqaruuv havogadir, ammo havoning sultanati, boshqaruvi ko'rinasdir".

Ushbu parchada Alisher Navoiy Imom G'azzoliyning tabiat hodisalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi fikrlaridan ayrim o'rnlarni namuna sifatida keltirib, ulug' shayxning qomusiy olim ekanligiga urg'u beradi. Demak, Alisher Navoiy Imom G'azzoliyning shunday fikrlarini tanlab keltiradiki, kitobxon u haqidagi qaydlardan olimning falsafiy, ilohiy-irfoniy fikrlari haqida to'liqroq tasavvurga ega bo'ladi. Keltirilgan iqtibos badiiy asar sifatida taassurot uyg'otadi. Ko'kka chirmashgan quyunning harakati orqali Allohning quadrati, buyukligi uqtiriladi.

Shuningdek, yuqorida ta'kidlaganimizdek, boshqa shayxlar haqida ma'lumot berganda ham Imom G'azzoliy bilan bog'liq ma'lumotlarni ham qayd etadi. Jumladan, 483-raqamda Shayx Nuruddin Abdurrahmon Isfaroyiniy Kasirqiy haqidagi mulohazalarni bayon etib, shunday deydi: „Shayx Ahmad Jurjoniy as'hobidindur. Toliblar taslikni va muridlar tarbiyati va alarning vaqos'i kashfida azim shoni bor ermish“, ya'ni shayx Ahmad Jurjoniyning as'hobidandir. Toliblarning yomon xulqligini va shogirdlar tarbiyasini hamda ularning bilan bog'liq voqealarni kashf etishda katta iste'dodi bor ermish. Shu shayx haqida ma'lumot bera turib Shayx Ruknuddin Alouddavlaning fikrlarini ham keltirgan: „Va ham Shayx Alouddavla debdurki, bir kun jamoatxonada g'oyib bo'lum. Imom Muhammad G'azzoliyni ko'rdumki, o'lturub erdi va boshin tizi ustiga qo'yub erdi va qalamni ikki barmog'i orasida tutub mutahayyir erdi. So'rdumki, ne voqe'dur va Imom ne fikrdadur? Dedi: nechuk mutafakkir bo'limg'aymenki, men dunyoda simurg'qa o'ttiz sifat bitibmen va bu soat ko'rarmenki, barcha g'alattdur. Va bu voqe'ani Shayx Nuruddin Abdurrahmong'a arz qildim, buyurdiki, ajabdur. Men dag'i Shaqon kentida erdim va ul vaqt manga so'z aytmak ma'rifatida ko'p sharah erdi. G'aybda ko'rdumki Haq s. t. manga ayturki, sen bilmassanki, har hasratki Imom G'azzoliyg'a bor, mundin ortuq yo'qdurki, sulukni tugatmay bizing xizmatimizg'a keldi. Andin so'ngraki ul g'aybdin keldim, o'z tilimda uqdaye toptim va xomushlik pesha qildim va o'z ishimga mashg'ul bo'lum“ [Navoiy, 2001: 300].

Joriy tildagi tabdili: "Shayx Alouddavla dedilarki, bir kun jamoatxonada edim, g'oyib bo'lum (shayxlar karomatidagi ruhiy sayru suluk). G'oyib (ruhiy olam) da Imom Muhammad G'azzoliyni ko'rdimki, boshini tizzasining ustiga qo'yib, qalamni ikki barmog'i orasida tutub hayron o'ltirar edi. Shunda so'radimki, nima voqeasodir bo'ldi'dur va fikringiz qanday? Dedi: nima uchun hayron bo'limgaymenki, men dunyoda simurg'ga o'ttiz sifat bitibmen va bu vaqtda ko'ryapmanki, barcha yanglishdir. Va men bu voqeani Shayx Nuruddin Abdurrahmonga aytdim,

dediki, qiziqdir. Men yana Shaqon shahrida edim va u vaqt manga so‘z aytish ma’rifatida ko‘p ortiqcha mayl-havas bor edi. G‘aybda ko‘rdimki, Haq taolo manga aytarki, sen bilmassanki, har hasrat (tashvish, afsus)ki Imom G‘azzoliyga bor, mundan ortiq bo‘lmaydi, chunki u sulukni tugatmay bizning xizmatimizga keldi. Shundan so‘ng g‘aybdan keldim, o‘z tilimda qiyinchilik, tugun topdim va kayfiyatsizlikni kasb qildim va o‘z ishimga mashg‘ul bo‘ldim”.

Mazkur parcha orqali Imom G‘azzoliy hazratlarining tasavvufdagi mavqeyi, o‘rni va uning tariqat shayxlari orasidagi darajasini anglaymiz. Alisher Navoiy bejizga G‘azzoliy haqida ikki jihatdan yondashmagan. Ya‘ni shayxning o‘zi haqida alohida maqolat va boshqa so‘fiylar haqidagi ma’lumotlar orasida Imom G‘azzoliyga ham to‘xtalib o‘tgan. Qolaversa, Navoiy shayxlarning nomlarini keltirib, so‘ng ular bilan bog‘liq ma’lumotlarga o‘rin ajratsa, G‘azzoliy haqida to‘xtalishdan avval “Hujjat ul-islom Muhammad b. Muhammad G‘azzoliy Tusiy”, deb sarlavha qo‘yadi. Mana shuning o‘ziyoq ham, G‘azzoliyning islom va tasavvuf olamidagi mavqeyini ko‘rsatadi, ham hazrat Navoiyning ulug‘ shayxga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatadi, deyish mumkin.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Навоий Алишер. Муқаммал асарлар тўплами. XX жилдлик. XVII жилд. Насойим-ул муҳаббат. – Тошкент: Фан, 2001 – 518 б.
2. G‘azzoliy I. Ihyou ulumid-din. Toshkent: «Movarounnahr», 2006 – 120 б.

## RADIF VA UNING NAVOIY LIRIKASIDA QO‘LLANISHI

Dildoraxon ABDULLAYEVA

*filologiya fanlari doktori, professor v.b.*

*Andijon davlat universiteti,*

*dildor.abd@mail.ru*

*DOI: 10.52773/tsuull.navoiyconf.2024/OCRZ6781*

**Annotatsiya.** Maqolada mumtoz she’rshunoslikdagi radif, uning ta’rifi va talqinlari, g‘azaldagi o‘rni va vazifasi hamda A.Navoiy g‘azallarida qo‘llanishi, shoirning noyob, original radiflar yaratgani, o‘z davrida bu radiflar shuhrat tutgani, radif qo‘llash haqidagi A.Navoiy fikrlari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Radif, radifning g‘azaldagi vazifasi, “G‘aroyib us-sig‘ar”da radif, Alisher Navoiy radif haqida.

**Abstrakt.** The article conducts an examination of radif in classical poetry, delving into its meaning, interpretation, and significance within the realm of ghazals. It specifically investigates Alisher Navo‘i’s incorporation of radifs in his ghazals, emphasizing his skill in crafting distinctive and original radifs that garnered widespread popularity in his era. Additionally, the article delves into Alisher Navo‘i’s perspectives on various statements regarding radifs, providing valuable insights into his thoughts on this particular aspect of poetic expression.

**Key words:** Radif, the role of radif in the ghazal, radif in “Garaib us-cigar”, Alisher Navo‘i about radif.